

*O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi
Vazirligi*



*Namangan tuman xalq ta‘limi bo‘limiga qarashli
25 -sonli maktabining
VI “D” sinf rahbari*

**SAYYORA SULAYMANOVANING
“Konstitutsiya-oliy qomusim”**

mavzusida o‘tkazgan tadbir

Ssenariysi



Konstitusiyam-oliy qomusim Adabiy kecha ssenariysi

Tadbir o`tkaziladigan joy bayramona bezatilgan. CHor atrofga Konstitusiyamizga bag`ishlangan shiorlar, devoriy gazetalar ilib qo`yilgan. SHuningdek, siyosiy adabiyotlar, o`quvchilarning qomusimiz haqida yozgan ma`ruzalari, ijodiy ishlari ko`rgazmasi tashkil etilgan.

(Magnitofon tasmadan Vatan haqidagi kuy taraladi va sahnaga adabiy kecha tashkilotchisi chiqadi).

O`qituvchi: - Qo`lingda erk boshda yalov, tilingda surud,
Vataning bor, bola-bog`chang, or-nomusing bor.
O`zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,
O`z Davlating, Mamlakating, o`z Qomusing bor.

Assalomu alaykum, aziz va hurmatli mehmonlar, ota-onalar, hamkasblar va o`quvchilar! o`lkamiz bo`ylab yana shodiyona. Bu yil O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinganiga 16 yil to`ladi. SHu munosabat bilan barchangizni chin qalbimdan tabriklayman va tadbirimizni ochiq deb e`lon qilaman.

(Zalda magnitofon tasmasiga yozilgan ohanrabo kuy yangraydi. Sahnaga adabiy kechani olib boruvchi qiz va yigit chiqib keladi).

Qiz: Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar!

Yigit: Assalomu alaykum, qadrlı maktabdoshlar!

Qiz: Sening bitik yuling kurashdir yiroq.

Bir bobing To`maris ko`targan chiroq,

YOzdi bir bobingni qon bilan SHiroq,

Ey, mening o`zligim - g`urur, nomusim,

Konstitusiyam - oliy Qomusim.

Yigit:

Sening manzilingni ko`zlagan karvon,

G`aznaviy, Temuriy, Boburiy davron,

U karvon boshida Navoiy sarbon,

Ey, mening o`zligim — g`urur, nomusim,

Konstitusiyam — oliy Qomusim.

Qiz: Mustaqillik Ona-Vatanimizga o`ziga xos chiroy, yangilanish baxsh etdi. Dunyo mamlakatlari orasida “Jannatmakon yurt” nomiga ega bo`ldi.

Yigit: Ana shunday unutilmas tarixiy voqealardan biri 1992 yil 8 dekabrda o`n ikkinchi chaqiriq, O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o`n birinchi sessiyasida mustaqil o`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishidir. Bu sana tariximizga zarhal harflar bilan bitib qo`yildi.

Qiz: O`zbekiston taraqqiyot yo`lida bir necha yutuqlarni, yangiliklarni qo`lga kiritib, o`z oldiga qo`ygan maqsadi, ya`ni rivojlangan suveren demokratik davlatni barpo etish masalasini hal qilib, o`z yo`lini tanlab bo`ldi.

Yigit: Demokratlashtirish jarayoni davlat hokimiyatining shunday tashkil etilishini nazarda tutadiki, u hokimiyatdagi barcha bo`g`inlarning uyg`un faoliyati bilan ajralib turadi, qonunning ustunligi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini hal etishdagi faol ishtiroki orqali ularning huquq va erkinliklari kafolatini ta`minlaydi.

Qiz: Mustaqil O`zbekistonning Konstitusiyasi, Prezidentimiz qayd etganidek, o`zining tub mohiyati, falsafasi, g`oyasiga ko`ra yangi hujjatdir. Undagi g`oya va prinsiplar fuqarolik jamiyatini va huquqiy davlatni shakllantirishga asos qilib olingan.

Yigit: Asosiy Qomusimizda xalq hokimiyatining real omillari ko`rsatib berilgan. Chunki hammamizga ma`lumki, davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha ishlar, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohotlarning hammasi xalq, inson manfaatlari, uning turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladi. Har bir kunimizning baxtli, dasturxonimiz to`kin, xonadonimiz yopyg` bo`lishining negizini tashkil etadi.

(Abdulla Oripov so`zi va Baxrullo Lutfullaev musiqasi asosida yaratilgan “Vatan” qo`shig`ini havaskor o`quvchilar xori ijro etadilar).

Qiz: Hozirgi Konstitusiyaning yozilishida bir necha bor amalda sinalgan, tarixiy va zamonaviy tajribalar va masalalar inobatga olinib, puxta va chuqur munozaralardan keyingina xalq muhokamasiga havola etilgan.

Yigit: Tarixdan bizga ma`lumki, Turk hoqonligi davrida, ya`ni VI-VII asrlarda maxsus “Qonunnoma” yozilgan. Qonunlar juda mukammal bo`lsa-yu, lekin ularning ijrochilari - mansabdorlarning odob-axloqi va ish yuritish uslubi past bo`lsa hamda zo`ravonlikka va adolatsizlikka yo`l qo`yilsa, u vaqtda mamlakatning inqirozga uchrashi turgan gap.

Qiz: Bu tarixiy va badiiy asarlarda, maxsus tavsiyanomalarda va qonun-koidalarda o`z ifodasini topdi. Masalan, YUsuf Xos hojib o`zining “Qutadg`u bilig” asarida mansabdorlar o`z burchlarini qanday bajarishlarini quyidagicha ta`riflaydi;

Nima der, eshitgin bilimli so`zin,

Tuta olmaydi elni zolim ko`p uzun.

YOnar o`t, misol zulm, yoqar, kuydirar,

Adolat suv erur - ne`mat undirar.

Elga bosh bo`layin desang, to abad,

Odil bo`l, elingni asragin faqat.

Yigit: YUsof Xos hojibning o`gitalaridan ko`p asrlardan buyon jamiyatni boshqarishda qonun-qoida sifatida keng foydalanildi. Uning o`gitalari hozirda ham o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Qiz: Hozirgi Konstitusiyamizning zaminida “Qutadg`u bilig” va undan keyin yozilgan qonun-qoidalar ham mujassam. Masalan, “Temur tuzuklari”, Xondamir (1474-1535) tomonidan bitilgan “Qonuni humoyun” shular jumlasidandir. Ularning orasida, ayniqsa, “Temur tuzuklari” o`zining takomillashganligi va hayotbaxshligi bilan katta ahamiyatga molikdir.

Yigit: Barchamizga tarixdan ma`lumki, ulug` bobomiz, Sohibqiron Amir Temur 1370 yili kuchli markazlashgan davlat tuzib, xalq turmush tarzini yaxshilash uchun kurashgan va bir necha islohotlar o`tkazgan. “Kuch – adolatdadir” degan aqida Amir Temurning doimiy shiori, oldiga qo`ygan masala va rejalarining kaliti hisoblangan.

Qiz: Bobomiz Alisher Navoiy esa insonni butun borliqning ko`rki va sharafi deb ulug`laydi. Uning manfaatiga, haq-huquqlariga rahna soluvchi nopoklik, johillik, baxillikni qoralaydi. SHoirning fikricha, inson hayotini jamiyat uchun foydali bo`lgan ishga bag`ishlashi lozim. U orzu qilgan komil inson timsolini o`zida mujassam etgan kishi, o`z hatti-harakatiga mas`ulligini, huquqlarini va burchini anglaydi. Boshqa insonlar manfaati va huquqlarini hurmat qiladi. Bu esa yuksak huquqiy ma`naviyatdir.

(Norali Allanazarov so`zi va xalq musiqasi asosida yaratilgan “Vatanimni kuylayman” qo`shig`ini havaskor o`quvchi ijro etadi, ashulaga raqs ham sahnalashtirish mumkin).

Yigit: O`zbekiston Respublikasining davlat tili - o`zbek tilidir.

Ona tilim, jon tilim,
Sen o`zingsan jon-dilim.
YUragimning to`rida
Sayrab turgan bulbulim.

Qiz: Mustaqil O`zbekistan Respublikasimning o`z hududiy chegarasi, Konstitusiyasi, mudofaa kuchlari va milliy valyutasi bo`lishi bilan birga u qonun bilan tasdiqlanadigan o`z davlat ramzlariga ega bo`ldi.

Ko`ngilda ochilar Vatan degan bog`,
YUrakda yuksalar g`urning tog`i -
Bashar osmonida hilpiragan chog`
Ona - O`zbekistan bayrogi.

Yigit: Dunyoda dunyosi
Bordir bu yurtning,

Xumosi — Tug`rosi

Bordir bu yurtning.

Qiz: Har sahar yangragan

Ulug` Madhiyam,
Har satri hikmatga
To`liq Madhiyam.
Eng go`zal qo`shig`i
Ozod elimning,
Muqaddas Madhiyam,
Qutlug` Madhiyam!

Yigit: Tabiiyki, har qanday davlatning obro`-e`tibori Konstitutsiya hisoblanadi. CHunki u davlatni, millatni dunyoga tanituvchi bosh qonundir.

Qiz: U inson qadr-qimmati, davlatning jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi to`g`risidagi ijtimoiy tafakkurining muhim yutuqlarini o`zida mujassam-lashtirganligi besabab emas. SHuning uchun dunyodagi eng rivojlangan davlat ham, fuqaro ham o`z qonuniy manfaatlarini, kelajagini Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi. Konstitutsiyamizni xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli desak, mubolag`a bo`lmaydi.

Yigit: Konstitutsiya inson manfaatlarini ko`zlovchi yuksak tayanch, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda asosiy mezondir. Bugungi kunda uni o`rganish, mazmun-mohiyatini to`la anglash va unga qat`iy amal qilish har birimiz uchun zaruriy vazifadir.

Qiz: yoshlar Konstitutsiyaning mohiyatini qay darajada tushunib yetmoqda va unga qanday amal qilmoqda? Ana shuni bilish maqsadida o`quvchilarga bir necha savollar bilan murojaat etamiz.

(Sahnaga 5-6-sinf o`quvchilari taklif qilinib, ularga Konstitutsiyamizning moddalaridan savollar beriladi. Belgilangan vaqt ichida savollarga aniq javob berib va uni to`g`ri sharhlay olgan o`quvchilar rag`batlantiriladi).

Yigit: Albatta, oldimizda turgan barcha muammolar o`sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash bilan hal qilinadi. Prezidentimizning “Farzandlarimiz bizdan ko`ra bilimli, kuchli, dono va albatta baxtli bo`lishlari kerak” degan so`zlarida ham juda katta ma`no mujassam. SHunday ekan, biz - yoshlar yurtimiz tinchligi, Vatanimiz ravnaqi, xalqimizning farovonligi uchun butun aql-idrokimizni, kuch-quvvatimizni sarflashimiz joiz.

Qiz: Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aql ko`zin qorasi - javhari ham biz.
To`garak jahonni uzuk deb bilsak,
SHaksiz uning ko`zi - gavhari ham biz.

O`qituvchi: Konstitutsiya jahon andozasida yozilgan, ilg`or va takomillashgan Qomusdir. U huquqiy-demokratik davlatning eng asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiyamizning qanchalar mukammal ishlab chiqilishi, mamlakatda amal qilinishi va, ayniqsa, xalq manfaatlariga xizmat qilayotganligi yurt-doshlarimizning ertangi kuni porloqligidan dalolat beradi. U mustaqillik, ozodlik va xalqparvarlik g`oyalari bilan sug`orilib, kelajakda O`zbekistonning buyuk davlatga aylanishini ta`minlashga kodirdir.

Tenglarning ichida bugun teng o`zim,
Jahoniy to`nlarga yoqa, yeng o`zim,
Dunyolar bag`rimda, bag`ri keng o`zim,
Ey, mening o`zligim - g`ypyp, nomusim,
Konstitusiyam - oliy Qomusim.

Hurmatli mehmonlar, ustozlar va aziz o`quvchilar! “Konstitusiyam – oliy Qomusim” deb nomlangan adabiy kechamizni (Mahmudjon Dadaboev she’ri va musiqasi asosida yaratilgan) “Ona diyor madhi” qo`shig`i bilan (havaskor o`quvchilar xori ijro etadi) yakunlaymiz.

